

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.D.Baxronov</b>	
Yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda etnomadaniyatning o'рни.....	201
<b>H.S.Ergashev</b>	
Sharq mutaffakirlari ijodida shaxs ma'naviy kamolotiga oid falsafiy qarashlar evolutsiyasi .....	207
<b>I.T.Boltaboyev</b>	
Temuriylar davri mutaffakirlari tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil insonga oid g'oyalarning rivojlanishida Amir Temurning o'рни.....	212
<b>Sh.O'.Ahrorova</b>	
Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'рни.....	216
<b>U.X.Xolmatov</b>	
Axboriy kurashlar sharoitda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning milliy-ma'naviy omillari .....	220
<b>F.B.Rahmonova</b>	
O'zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo'raonliklardan himoya qilishning falsafiy-deterministik tahlili .....	225
<b>J.Saburov</b>	
Buxoro amirligida tasvvuf ilmi uzviyligi va ijtimoiy madaniy hayotga uyg'unligi hamda ta'siri ....	230
<b>B.A.Pulatov</b>	
Harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning falsafiy omillari .....	236
<b>S.S.Evatov</b>	
Musulmon sharqi falsafiy tafakkurining takomil bosqichlari va unga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar xususida.....	240
<b>A.Sh.Raximov</b>	
Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida yoshlar vatanparvarligi fenomenining ijtimoiy-falsafiy tavsifi .....	245
	SIYOSAT
<b>Sh.Ismoilov</b>	
O'zbekistonda ijtimoiy himoya – davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalish .....	249
<b>D.Sh.Mahkamov</b>	
Hakamlik sudi va davlat sudlari o'rtasidagi farqlar .....	252
<b>R.Nurimbetov</b>	
Shanxay hamkorlik tashkiloti istiqbollari: O'zbekiston yondoshuvlari .....	255
<b>B.X.Allamurodov</b>	
Digital diplomacy in the foreign policy of Central Asian countries (using the example of Uzbekistan and Kazakhstan) .....	258
<b>M.B.Nabiyev</b>	
Jamoat birlashmalarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi.....	265
<b>N.Madumarova</b>	
Kasaba uyushmalari notijorat tashkilotlarning alohida shakli sifatida .....	269
<b>A.A.Buriyev</b>	
Sudlar orqali intellektual mulk obyektlari bilan bog'liq nizolarni hal qilishning o'рни va bu boradagi xorijiy tajriba .....	273
<b>D.Mamadjonova</b>	
Siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari .....	277
<b>A.A.Ahrorqulov</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini huquqiy tartibga solish.....	281
	TARIX
<b>Бурҳониддин Чалодиддин</b>	
Мухаммадвалихан Дарвози основатель новой прогрессивной внешней политики.....	285
<b>M.T.Musaev</b>	
Globalashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lishi .....	292
<b>R.A.Arslonzoda</b>	
Отражение литературной жизни Бухары в “воспоминаниях” Садриддина Айни .....	297



UO'K: 351.72

**SIYOSIY PARTIYALAR FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI****ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ И ОСОБЕННОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПАРТИЙ****LEGAL BASIS OF POLITICAL PARTIES AND ITS OWN CHARACTERISTICS****Mamadjonova Dilfuza**

Huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*Bu maqola siyosiy partiyalarining notijorat tashkilotining ma'lum bir qismi sifatidagi o'rni va ahamiyati to'g'risidagi fikrlar ilgari surilgan. Demokratik mamlakatlarda siyosiy partiyalar muhim o'rinni egallaydi. Ular aholi turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifoda etib, davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolarning ishtirokini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.*

**Аннотация**

*В данной статье представлены представления о роли и значении политических партий как определенной части некоммерческой организации. Политические партии играют важную роль в демократических странах. Они выражают политическую волю различных классов и групп населения и играют важную роль в обеспечении участия граждан в управлении государством и обществом.*

**Abstarct**

*This article presents ideas about the role and importance of political parties as a certain part of a non-profit organization. Political parties play an important role in democratic countries. They express the political will of various classes and groups of the population and play an important role in ensuring the participation of citizens in the management of the state and society.*

**Kalit so'zlar:** siyosiy partiya, notijorat tashkilot, jamoatchilik nazorati, «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi, jamoat birlashmasi, konvensiya.

**Ключевые слова:** политическая партия, некоммерческая организация, общественный контроль, социал-демократическая партия «Адолат», демократическая партия «Национальное возрождение», общественное объединение, съезд.

**Key words:** political party, non-commercial organization, obshchestvennyy control, social-democratic party "Justice", democratic party "Natsionalnoe vozrojdenie", obshchestvennye ob'edinenie, sezd.

**KIRISH**

Demokratik mamlakatlarda siyosiy partiyalar muhim o'rinni egallaydi. Ular aholi turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifoda etib, davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolarning ishtirokini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Siyosiy partiya jamoat birlashmasining shunday bir shakli, u orqali muayyan guruh (masalan, tadbirkorlar, shifokorlar va h.k.) o'zaro birlashib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan holda o'z xoxish-istaklarini, manfaatlarini davlat boshqaruvida hisobga olinishi hamda boshqaruvda ishtirok etish uchun kurashadilar.

Siyosiy partiyaning boshqa jamoat birlashmalari yoki turli nodavlat notijorat tashkilotlaridan asosiy farqi, ularning hokimiyat uchun kurashda (saylovlarda) ishtirok etishidir.

O'zbekistonda faqat siyosiy partiyalarga saylovlarda ishtirok etishga, turli (oliy va mahalliy) davlat hokimiyati vakillik organlariga, prezidentlikka o'z nomzodlarini ko'rsatish huquqi berilgan.

Shuning uchun siyosiy partiyalarga qonun hujjatlarida berilgan ta'riflarda bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasiga ko'ra, «Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar».

Mazkur yo'nalishda aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida eng ko'p beriladigan savollar quyidagicha: «O'zi siyosiy partiya nega kerak? Siyosiy partiyaga a'zo bo'lsam, nimaga erishaman? Bu menga qanday naf keltiradi?» Siyosiy partiya muayyan manfaatlar birligi asosida birlashgan

fuqarolardan iborat, hokimiyat uchun, boshqaruvda ishtirok etish uchun harakat qiladigan nodavlat tashkiloti hisoblanadi.

Bunday demokratik institutlarning mavjudligi jamiyatda fikrlar xilma-xilligini ta'minlashga xizmat qiladi. Davlat boshqaruvida yagona g'oya hukmronligini cheklaydi, rivojlanishga, taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Siyosiy partiyaga a'zo bo'lish fuqarolarga, ayniqsa yoshlarga davlat boshqaruvida ishtirok etish uchun, o'zlarining konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadi. O'z fikr, g'oya va qarashlarini davlat organlariga yetkazish, davlat boshqaruvida bevosita ishtirok etish, saylanish huquqlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir.

Siyosiy partiyalar faoliyatini huquqiy tartibga solish maqsadida O'zbekistonda bir qator qonunlar qabul qilingan. Xususan, 1996-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonunini qayd etish o'rinli. Unda partiyalar faoliyatining kafolatlari, ularni tuzish, ro'yxatga olish, partiyalar mulki, ular faoliyatini to'xtatish tartibi va boshqa muhim masalalar to'liq ko'rsatib berilgan. Siyosiy partiyalarni tuzish uchun kamida 8 ta hududiy subyektda (viloyatda), shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiyaga birlashish istagida bo'lgan kamida 20 ming fuqaroning imzosi bo'lishi talab etiladi. Siyosiy partiyalar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni bo'yicha, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda xizmat qiluvchi shaxslar (sudyalar, prokurorlar va prokuratura tergovchilari); milliy gvadiya, ichki ishlar organlari, davlat xavfsizlik xizmati xodimlari va harbiy xizmatchilar, xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar siyosiy partiyaga a'zo bo'la olmaydilar. Siyosiy partiyalarga a'zolik faqat yakka tartibda qayd etiladi. Bir partiyaning a'zosi ayni vaqtda ikkita partiya a'zolikka qabul qilinmaydi<sup>22</sup>.

Siyosiy partiyalar saylab ko'yiladigan davlat organlaridagi o'z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda, qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etadi<sup>23</sup>.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'z partiyalarining siyosatini uyushqoklik bilan amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida Siyosiy partiyalarning fraksiyalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarida partiya guruhlarini tuziladi. Shuningdek, mamlakatimizda «Siyosiy partiyalarning davlat tomonidan moliyalashtirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni hamda «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonunlari qabul qilingan. Mustaqillikka erishgach, siyosiy islohotlar natijasida O'zbekistonda yangi voqelik – ko'ppartiyaviylikka asoslangan demokratik siyosiy tizim shakllana boshladi. Fransuz olimi M.Dyuverje o'zining «Siyosiy partiyalar» asarida: «Siyosiy tizimda ko'ppartiyaviylik qaror topgan taqdirdagina davlat xalq manfaatlarini ifoda eta olishi, umummilliy manfaatlarni, sinflar, ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ustunligini ta'minlay olishi va jamiyatdagi barqarorlikning mustahkam negizini tashkil qila olishi mumkin», – deb ta'kidlagan. Ko'ppartiyaviylik tizimida partiyalar teng harakatni amalga oshirish, bloklarga birlashish imkoniga ega bo'ladilar, shuningdek bunday paytda konstruktiv muxolifat va partiyalararo raqobat muhiti, elektorat manfaatini to'liq qamrab olish imkoniyati uchun qulay sharoit yaratiladi. 2021-yil yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda beshta siyosiy partiya faoliyat olib bormoqda. Ular: O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi (1991-yil), O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi (1995-yil), O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi (1995-yil), Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (2003-yil), O'zbekiston ekologik partiyasi (2019-yil).

<sup>22</sup> <https://qomus.info>

<sup>23</sup> Bekov I.R. Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida siyosiy partiyalar ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Dissertatsiya. – T.: TDYUU, 2021. – 265 bet.

## SIYOSAT

Har bir siyosiy partiya jamiyatning ma'lum bir tabaqasi manfaatlarini himoya qilishga harakat qilmoqda. Hokimiyat uchun kurash, saylovoldi dasturini bajarish, davlatning ichki va tashqi siyosatini ishlab chiqishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish siyosiy partiyalarning asosiy siyosiy vazifalaridan sanaladi. Parlament uchun kurashish, unda ko'pchilik deputatlik o'rinlarini egallash siyosiy partiyalarning asosiy maqsadlaridan biridir. Chunki siyosiy partiyalarning umumxalq saylovlarida shakllangan parlamentdan o'rin egallagan vakillari (deputatlar), xususan ular ko'pchilikni tashkil etsalar, qonunchilik faoliyatida ishtirok etish orqali o'z g'oyalarini hayotga tatbiq etish, Bosh vazir lavozimiga nomzod taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Siyosiy partiyalar jamiyatning eng faol va umumxalq manfaatlarini yo'lida dunyoqarashi, maqsadi, fikrlar mushtarakligi bir bo'lgan mamlakat fuqarolarining muayyan qismini o'z safida birlashtirgan va siyosiy hokimiyat uchun kurashadigan siyosiy tashkilot bo'lgani bois fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan ajralib turadi.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Har bir siyosiy partiya elektorat ishonchi va hurmati uchun kurashishga, saylovchilar xohish-irodasini ifodalovchi dasturiy maqsadlarni ilgari surishga, parlamentda ko'pchilik o'rinni egallashga, jamiyatning yuksalishi va yangilanishi yo'lida yangi taklif va yechimlarni taqdim etishga intiladi.

Siyosiy partiyalarning yanada faollashuvi uchun, avvalo, ular xalq ishonchini qozonishlari, o'zlari haqida ijobiy, ijtimoiy fikrni shakllantirishlari zarur. Partiya elektoratsiz, elektorat ortida turuvchi xalqning ko'magisiz faqat o'z a'zolariga suyangan holda hech nima qila olmaydi. Respublikamizda faoliyat olib borayotgan siyosiy partiyalarning elektorati quyidagicha:

- O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi elektorati – davlat va jamiyat tomonidan manzilli ijtimoiy himoya hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyojmand aholi qatlamlari (pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdori turmush kechirishi uchun yetarli bo'lmagan pensionerlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan ota-onalar, ko'p bolali ayollar, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, yolg'iz keksalar va aholining boshqa zaif qatlamlari, mehnat bilan band bo'lmagan mehnatga layoqatli aholi, ishga joylashishda qiyinchilikka duch kelayotgan insonlar, jumladan, mehnat bozoriga endi kiritib kelayotgan ta'lim muassasalari bitiruvchilari, doimiy ish joyi va barqaror daromadga ega bo'lmagan kishilar, ichki va tashqi mehnat migrantlari);

- O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi elektorati – malakali mutaxassislar, budjet sohalari xodimlari, pedagoglar, shifokorlar, injener-texnik va ilm-fan vakillari, xizmat ko'rsatish sohasi mehnatkashlari;

- O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi elektorati – ziyolilar, shu jumladan, ilm-fan va ta'lim, madaniyat, san'at va axborot sohasi xodimlari, kelajagimiz bunyodkorlari bo'lgan yoshlar, shuningdek, olimlar, tarbiyachi va o'qituvchilar, ijodkor va san'atkorlar, sportchilar, turizm, hunarmandchilik va xalq tabobati sohasi vakillari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari, shuningdek, «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari», degan ustuvor g'oyani qo'llab-quvvatlovchi vatanparvar va bunyodkor xalqimiz vakillari;

- Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi elektorati – mulkdorlar qatlami, kichik biznes vakillari, tadbirkor va ishbilarmonlar, fermerlar, jamoat tashkilotlari vakillari, ishlab chiqarish sohasidagi mutaxassislar hamda o'z tadbirkorligi va tashabbuskorligini rivojlantirish evaziga xalq farovonligiga erishishga harakat qilayotgan ijodkor, olimlar;

- O'zbekiston ekologik partiyasi elektorati – ekologlar, biologlar, ximiklar, geologlar, irrigatorlar, agrar soha vakillari, tibbiyot xodimlari, atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga, ekologik barqarorlikni ta'minlashga befarq bo'lmagan barcha fuqarolar.

Partiyalarning o'z funksiyalarini amaliyotda bajarishlarining asosiy usuli, bu – saylov kampaniyasi davrida davlat hokimiyati vakillik organlari uchun o'z nomzodlarini ko'rsatishlaridir.

Saylovda g'alaba qozonish uchun partiya faollari aholining ko'pchilik qismini o'z tomoniga og'dirishi, saylovchilar o'rtasida tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borishi lozim. Ayniqsa, bu davrda jamoatchilik fikriga ta'sir qila olish qobiliyatiga ega bo'lish partiyaning eng asosiy maqsadidir. Deputatlikka nomzodlarni ro'yxatga olish uchun belgilangan oxirgi kunning ertasidan boshlanadigan saylovoldi tashviqoti siyosiy partiyalar tomonidan asosan an'anaviy targ'ibot vositalari – televideniyaedagi axborot dasturlari, siyosiy partiyaning matbuot nashrlari orqali olib borilgan bo'lsa, bu yilgi saylovoldi targ'ibotida omma oldida ochiq munozaralar, debatlar, matbuot

konferensiyalari, intervyular, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar, roliklarni joylashtirish, internet (asosan ijtimoiy tarmoqlar) orqali amalga oshirilmoqda.

### XULOSA

Yuqoridagi fikrlardan ham ko'rinib turibdiki, siyosiy partiyalar o'zining kelajak siyosati, dasturi, mafkurasi yo'nalishlarini xalqda qiziqish uyg'otadigan shakllarda xalq ruhiyatiga singdira bilishi – partiyaning saylovlarda g'alabaga erishishining kafolatlaridan biridir.

Siyosiy partiyalar eng avvalo, o'z elektorati manfaatlaridan, siyosiy mafkurasi va pozitsiyasidan kelib chiqib, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlariga yetarlicha ta'sir o'tkazishlari hamda o'zining vakillari orqali davlatning markaziy va mahalliy ijroiya organlari ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishda qatnashishlari lozim.

Shunday qilib, siyosiy partiyalar aholining huquqiy madaniyatini va faolligini oshirish, ularning davlat siyosatini tashkil etish va boshqarishdagi ishtirokini ta'minlash orqali davlat va jamiyat o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini o'taydi, aholining jamoatchilik fikrini shakllantirishda, fuqarolarning siyosiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashda muhim o'ringa ega<sup>24</sup>.

Shu bilan birga, mamlakatimizda hokimiyat bo'linishining konstitutsiyaviy tamoyilini amalga oshirishda ko'ppartiyaviylik tizimini yanada rivojlantirish, siyosiy partiyalar faolligini oshirish, ular o'rtasida raqobatli kurashni kuchaytirish masalalari g'oyat muhim o'rin egallaydi. Bu raqobat qanchalik kuchli va murosasiz bo'lsa, muayyan ijtimoiy kuchlar va qatlamlar manfaatlarini ilgari suruvchi har bir partiya g'oyalari, dasturiy vazifalari shunchalik muvaffaqiyatli amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Shubhasiz, ularning barchasi qabul qilinayotgan qonunlar sifatini oshirish, huquqni qo'llash amaliyotini yaxshilash, qonun ustuvorligini ta'minlash, vakillik hokimiyat organlarining mamlakatimizda yuz berayotgan jarayonlarga ta'sirini kuchaytirishga ko'maklashadi

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.12. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonuni. //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 y., 5-son, 115-modda / <https://lex.uz/docs/11360>
- 1.13. O'zbekiston Respublikasining «Kasaba uyushmalari to'g'risida»gi Qonuni. 2019 yil 6 dekabr.
- 1.14. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonun. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 1-2-son, 2-modda; 2008 y., 51-son, 500-modda.
- 1.15. O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. 1997. –№2. –36-modda.
- 1.16. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonuni //O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1991. –№4, –76-modda.
- 1.17. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. 1999. –№5. –110-modda.
- 1.18. Akhrorqulov, A. (2020). Non-Profit Organizations: Legislation Reform And Law Enforcement Practice. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2(10), 129-134.
- 1.19. Gulyamov, S., & Akhrorqulov, A. (2022). Notijorat tashkilotlar faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari: milliy va xorijiy tajriba. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 1029-1041.
- 1.20. Akhrorqulov, A. (2022). Notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish masalalari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 893-902.
- 1.21. Akhrorqulov, A. (2020). Issues of formation and registration of non-profit organizations. *Scientific research results in pandemic conditions (COVID-19)*, 1(02), 23-26.
- 1.22. Mamajonova, D. (2022). Konstitutsiyaviy islohotlar–xalq manfaatining asosiy mezon. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 688-693.

<sup>24</sup> Qarang: Rasulova N.S. Siyosiy partiyalar saylov jarayonining muhim subyekti sifatida. o'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti rasmiy veb-sayti <http://www.isrs.uz>